

ZULFIYAXONIM - MEHR-MUHABBAT VA SADOQAT TIMSOLI

Nozikoyim Bahodirova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Ochilova V.R.

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10361143>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbekning mard ayoli, she'riyatning onasi Zulfiyaxonim hayot yo'li, serqirra ijodi yoritilgan bo'lib, o'zbek adabiyotidagi zabardast o'rni keng talqin qilingan. Zulfiyaning ijodidagi muhabbat, sadoqat, ma'rifat va insonparvarlik kabi sifatleri yorqin ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Zulfiya, Hamid olimjon, she'riyat, she'r, bahor, adabiyot, mehr, sadoqat, muhabbat, sog'inch.

Zulfiya Isroilova-qalbimiz bahori, she'riyatimiz nufuzi, o'chmas xotiralar nahori. U benazir ayol, buyuk va mehribon ona, sadoqatli rafika. U sharq ayollarining teng huquqi uchun kurasha olgan mardonavor va jasur ayol. Zulfiya Isroilova (1915 - 1996) hunarmand-degrezchi oilasida Toshkentda tug'ilgan. Shunga qaramay, ota-onasi yuqori madaniyatli, oqil insonlar bo'lishgan. "Onam ohista va xotiramda saqlanishicha, ma'yus bo'lganlar. Lekin ularda qullik horg'inligi bo'lmagan... Ular qanchadan-qancha qo'shiq va afsonalar bilganlar, ularni mohirona aytib, kuylab bera olganlar, biz-farzandlarini sehrli ertaklar bilan qiziqтира olganlar, - eslaydi Zulfiya, onasini xotirlar ekan. -Mo'jizalarga sabab bo'luvchi, dunyoni fosh qiluvchi, insoniyatni ajoyibotlar sari yetaklovchi "so'z"ga bo'lgan mehrni oddiygina ayol - onam uyg'otganlar...". Tabiiyki, onamlar farzandlari o'qimishli, madaniyatli insonlar bo'lishini istaganlar. Ularning orzusi ro'yobga chiqdi ham. Zulfiya o'rta maktabni va ayollar pedagogika bilim yurtini tamomlab, respublika gazeta va oynomalari nashriyotida ish faoliyatini boshladi, she'riyatga qiziqib qoldi va she'rlar yoza boshladi. Uning ilk she'rlari "Yangi yo'l" oynomasi va "Qizil O'zbekiston" hamda "Yosh leninchi" gazetalarida chop etila boshlagan.U 1932 yil 17 yoshni qarshi olganida, uning "Hayot sahifalari" nomli ilk she'riy to'plami omma yuzini ko'rди. Bular — yoshlar, do'stlik, inson qalbining go'zalligi haqidagi she'rlar edi. So'ngra, she'rlari, dostonlari va hikoyalari e'tirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar ko'rinishida chop etila boshlangan, turli yirik nashriyotlarda ishlaydi, respublika va respublikalar aro har xil tashkilotlar a'zosiga aylanadi. Urush yillarida uning ijodi o'ta avj oladi, ichidagi alam va fig'onlarini o'z she'rlarida yoritadi, vatanparvarning g'ayratli ovozi jaranglaydi, vatani mustaqilligi uchun qo'lga qurol olib kurashayotganlarga, har kunlik chuqur kurash ortida mashaqqatli mehnati ila frontni barcha kerakli narsalar bilan ta'minlayotganlarga nisbatan lirik ilqligi seziladi. "Uni Farhod derdilar" she'rida isyonkor fashistlarga nisbatan nafrat, g'alabaga ishonch ifodalangan. G'animga qarshi kurashgan chorlov askar-o'g'il haqidagi ona qo'shig'i, xotini va onasini sog'ingan jasur frontchi, paxlavon eri uchun qayg'urayotgan ayolning qayg'uli xavotiri, issiqni issiq, sovuqni sovuq demay tinmay ishlagan,yer ag'dargan xalqning mehnatkashligi bilan bog'lanadi. Shoir Vatanidan tashqaridagi baxtni tan olmaydi, xatto u yer yaxshiroq bo'lsa ham: "Axir, baxt ona diyoridagina tirikdir"- deydi. Urush yillaridagi she'rlari nihoyatda yuqori badiiy mahorat, yorqin she'riy timsollar bilan qayd etilgan. Urushdan keyingi she'rlari ham o'zgacha falsafiy mazmunga boy bo'lgan. Urushda jarohat olgan haqiqat tasviri keng ko'lamda aks ettirilgan, xalqning boshiga tushgan ayanchli kunlar poyoni talqin qilingan. Uning she'riyatida mehnat mavzusi ustunroq o'rin egallagan.U

vatani uchun kuchini sarflayotgan, qattiq mehnat qilayotgan ishchilarni, paxtachilarni, muhandis va olimlarni tarannum etadi. Aksariyat she'rlarida vatanparvarlik, sog'inch tuyg'usini targ'ib qilgan. Iqtidorli shoira turli janrlarda qalam tebratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar, hikoyalar, ocherklar, gazeta xabarlar va publitsistik maqolalar. Shuningdek, turmush o'rtog'i Hamid Olimjon qalamiga mansub "Semurg" dostoni asosida ham ertak-sahna asari yaratgan. Shoiraning eng mashhur she'rlari: "Xulkar" (1947), "Men tongni kuylayman" (1950), "Yuragimga yaqin kishilar" (1958), "Yurak yo'lda" (1966), "Mening bahorim" (1967), "Sharshara" (1969) kabilardir. Uning butun ijodiy faoliyati O'zbekiston diyorining madhiyasi, inson mehnati madhiyasi, sevgi va adolat uchun madhiyasidir. 2004 yil O'zbekiston Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan hamda 2008-yil 1-may kuni Toshkentda Zulfiya haykali o'rnatilgan. Tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova xalqaro "Nilufar", Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofatlari sohibasi bo'lgan. Uning buyuk ijodi faqat bizning yurtimizdagina emas, balki butun dunyo miqyosida tan olingan. Asarlarida porloq inson yulduzining yog'dusi charaqlab turadi. Shoiraning barcha ayollarga, barcha qizlarga, barcha onaiarga, barcha ma'shuqalarga xos, tushunarli, anglanarli bo'lgan so'nmas she'riyati aslo urfdan qolmaydi. Bebaho she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan. Xalq orasida "Oydinda", "Sensiz", "Yurak", "Falak", "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'g'irlamang qalamim bir kun", "Bo'm-bo'sh qolibdi bir varaq qog'oz" kabi she'rlari, "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Mushoira" kabi she'rlari mashhur. "Uni Farhod der edilar", "Quyoshli qalam", "Xotiram siniqlari" kabi lirik va liro-epik dostonlar muallifi. 1935 yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaqt vafotidan so'ng ko'plab mahzun, sog'inchga boy she'rlar yaratgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, L. Ukrainka, V. Inber va boshqa ko'plab shoirlarning asarlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Zulfiya she'riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she'rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo'yoq va timsollarda gavdalanadi. mmp.tma.uz. Zulfiya adabiyotimizning turli mavzularda keng ko'lamli ijod qilgan, yuksak she'riyatda o'chmas iz qoldirgan porloq quyoshdir. "Mevaning totu yetishgan og'ochga qanchalik bog'liq bo'lsa, ijodkorning bitganlari uning shaxsiyatiga ham shunchalik aloqadordir"-degan haqiqat bor. Sobiq sho'rolar davridagi ijodkorlar orasida Zulfiya she'riyati alohida o'rin tutadi. Uning nozik chizgilar, go'zal tashbihlar, o'xshatishlar bilan bir vaqtda "inson ruhiyatini g'ajib tashlay oladigan" ayriliqdan tug'ilgan alamli i iztirob, taqdirning shavqatsizligiga po'rtanavor isyon aks etgan lirikasi shoira shaxsiyati va ruhiyatidagi inja manzaralardir, deyish mumkin. Bilamizki, Zulfiya-sadoqat va muhabbat timsoli. Zulfiya uchun turmush o'rtog'i, do'stgina emas, balki uning ijodiy taqdirida mislsiz ahamiyatga ega siymo ham bo'ldi.

Deydilarki, seni ko'rganda

Ko'zlarimda yonar jonli o't,

O'sha o'tning yulqinlarida,

Sendan o'zga bor narsa unut.

Birga kechirgan qisqa hayotlari davomida ular chin muhabbatni, baxtni his qiladilar. Turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng shoira ijodida sog'inch, hijron mavzusi yetakchilik qiladi. Ammo shoira hayotning bu sinovi qarshisida dovdirab qolmadi, farzandlari uchun o'zida jasorat topib, oyoqqa turdi, yolg'izlikning achchiq azoblariga dosh berib, chinakam sadoqat timsoliga aylandi.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
 Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:
 Suydim,
 Erkalandim,
 Ayrildim,
 Kuydim,
 Izzat nima - bildim.
 Shu-da bir yashash!

Zulfiyaxonimning yuqoridagi she'rini o'qir ekanmiz, uning turmush o'rtog'iga bo'lgan muhabbati qanchalik yuksak bo'lganini va uning o'limidan qanchalar iztirob chekkanini his qilishimiz mumkin. Biroq turmush o'rtog'i bilan birga kechirgan qisqa umriga qaramasdan, uzoq yillar davomida oilasiga va umr yo'ldoshiga sadoqatini yo'qotmadi va Hamid Olimjonning ishlarini sabot bilan davom ettiradi. Bir umr o'z yoriga sadoqat bilan yashagan shoira "Hijronim kunlarida", "O'rik gullaganda", "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?", "Sensiz", "Izlayman" kabi she'rlarida Hamid Olimjonga bo'lgan cheksiz mehr-u sadoqatini, vafosini, sof sevgisini ifoda etgan. Zulfiyaning mashhur "Bahor keldi seni so'roqlab" asarida uning hijron mavzusidagi barcha boshqa she'rlaridagi kabi kuchli dard, chegarasiz hijron aks etgan. Ulkan insoniy alam, o'kinchning she'rga yo'g'rilgan samimiy ifodasi she'rxonning ko'nglini titratadi. She'rda ifoda etilgan shoira, bahor, yel timsollarining bari sog'inch dardiga muhtalo. Ularning uchulasi ham o'rik gullariga maftun bo'lib, bahor yellarini "baxtim bormi deya" so'roqqa tutga, shoiranida, bahornida, yelnida yaxshi ko'rgan jingala soc li xayolchan yigit Hamid Olimjonni birday sog'inishgan. Bu dard uch qayg'ukashni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularni birbi ini suyasga, bir-birini tuyishga unda. Birinchi to'rtlik mazmun-mohiyati bilan she'rga kirish vazifasini o'taydi. Lirik qahramonning atrofidagi hamma narsa bahor qaytib kelganidan darak beradi. Tabiat marhamatli, unda fasllar aylanib kelaveradi. Ko'klam go'zalligiga burkangan olam to'kis. Unda bultur bor bo'lgan narsalarning deyarli barchasi bu yil ham mavjud. Lekin lirik qahraon, bahorning o'zi va sarin yel uchun olam to'kis emas. Ular kimnidir qo'msaydi, qidiradi, topgisi keladi. O'zbek ayolining ma'naviy va mukammal qiyofasini aks ettirgan, sadoqat, halollik va afo kuychisiga aylangan ayol, rafiq, ona hamda shoiradir. Zero, u xotin-qizlar istiqboli yo'lida kurashib kelgan jamoat arbobi, necha-necha qizning qo'lidan tutib, adabiyot dargohiga boshla kelgan, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatgan mehribon, ammo talabchan ustoz, nozikta'b, zukko ayol, sadoqatli yor, mehribon ona edi.

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
 O'rik gullarining eding maftuni.
 Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
 Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

O'rik gullariga maftun bo'lib, sha'niga she'rlar bitgan, bahorda uyg'ongan har bir kurtak go'yo unga hayot berganday ko'zlariga surtib o'padigan odamning tabiati, hissiyot olamini sezganday bo'ladi. Bahorning uni izlab sarsari kezishini ham bu shaxsning qandayligini ko'rsatuvchi belgi deyish mumkin. She'rda bahorning holati: "Qishning yoqasidan tuti so'radi seni, Ul ham yosh to'kdi-yu chekildi nari" misralari orqali berilis i ko'klamg muhabbat qo'yib, uni ham o'ziga shaydo qilgan shaxs tabi ti haqida muayyan tasavvur uyg'otadi. Bahorning qish yoqasidan tutishi shoira ko'ngil holatini ifodalashi bilan birga yaralish fasli ko'klamning yo'qotish fasli qishga munosabatini ham aks ettirad. Olamni ramziy idrok etishga odatlangan

xalqimizning badiiy tajribasi bu o'rinda "qish" timsoli o'lim ramzi sifatida kelayotganligini anglatadi. Qishning bahor bergan haq savolga javob topolmay ko'z yoshi to'kishi, nari chekinishi bilan lirik qahramonning ko'klam yeli so'roqlari qoshida lol qolish holatidagi uyg'unlik tasviri she'rxonni o'ziga rom etadi. O'qirman o'z husnu ko'rkini ko'rsatmoqchi bo'lib shoir yigitni bog'lardan, yashil qirg'oqlardan qidirgan shabbodaning uni topolmagach, qahr bilan bo'ronga aylanib jarliklarga bosh olib ketishi, alamdand tog'larning toshini soylarga qulatishi tasvirini tabiiy akslantiradi. Sezgir o'qirman lirik qahramonning yanoqlari za'faronligi sabablari to'g'risida ham o'yga toladi. Zulfiyaning "Sen qaydasan, yuragim" she'ri Hamid Olimjon vafotidan bir yil o'tgach yozilgan bo'lib unda hijron o'tida qovrilayotgan alamdiyd ayolning chin tuyg'ulari yorqin aks ettirilgan. O'quvchini she'rning ohangi o'ziga jalb etadi. Mazmuni g'amdand iborat she'rning ohangi ham g'amgin. Bu ohangda adoqsiz g'am og'ushidagi shoiraning shikasta ovozi, yo'qsil ruhi aks etadi. Hazin ohang o'qirman tuyg'ulari ko'zini ochib, she'r ruhi tuyilishini osonlashtiradi. Zulfiya uchun Hamid Olimjon ham sevimli yor, ham maslakdosh do'st, ham ustoz edi. Zulfiyaxonim shoir bilan birga kechgan ana shu baxtli yillarda har qanday iste'dod doimiy mehnat tufayli charxlanishi, haqiqiy san'atkor buyuk mehnat intizomiga ega bo'lishi lozimligini ko'rdi. Hamid Olimjon har qanday sharoitda ham soat 6 dan 11 ga qadar uyda ijod bilan shug'ullanar, so'ng hali siyohi qurimagan asarini ovoz chiqarib o'qi va uning qanday jaranglashini tekshib ko'rar edi. Zulfiya o'zining har bir she'rini uning nazaridan o'tkazar, ammo Hamid Olimjon bu she'rlarga qalam urmas, balki ulardagi kuchli va kuchsiz satrlarni ko'rsatar, tushuntirar edi. Ulkan shoir, nodir insoniy fazilatlar sohibi Hamid Olimjon Zulfiyaga har tomonlama o'rnak bo'la oldi biz izdoshlar uchun. U ajoyib shoirdan fikrlashni mehnat qilishni va she'r yozishni ham, do'stlarga mehribon, dushmanga shafqatsiz bo'lishni ham o'rgandi, uning ijodiy maktabida ta'lim ldi. Hamid Olimjon shu ma'noda Zulfiyaning qalbiga uyg'un hamrohi va sezgir maslahatchisi Barcha baxtiyor kishilar bir-birlariga o'xshaydilar. Baxtiyor inson dilnavoz oshiq yoki ma'shuqaga o'z qalbining billur tuyg'ularini nisor etadi. Zulfiya ham Hamid Olimjon ham o'sha charag'on yillarda qalb qo'rini, mehr-muhabbat taftin bir-birlaridan sira ayamadilar. Bu, ikki shoirning o'z ro' hurmat va muhabbat asoslangan ittifoqi edi.

Bu davrda Zulfiya ijodi bahor chog'laridagi qorli cho'qqilardan endigini paydo bo'layotgan kichik bir jilg'a edi. Kunlar, oylar, yillar o'tib, bu jilg'aning ulkan bir daryoga aylanishi muqarrar edi.

Xulosa: Zulfiya Isroilova deganda daf'atan ko'z oldimizda turfa chechaklar bilan ziynatlangan bir chamanzor namoyon bo'ladi. Uning she'riyati butun jahon minbarlaridan yangragan. Shoiracha o'zbek qizi, o'zbek onasi, matonatli ayol sadoqat va muhabbat kuychisi, bahor shabadasi bo'lib qalblarda mangu yashaydi. Uning iboratli hayoti, be'takror iste'dodi biz izdoshlar uchun yuksak o'rnak bo'la oladi. Zulfiya she'riyatida lirika bilan publitsistik ruh o'zaro chambarchas bog'langan. Unda hayotga, insoniyatga, ezgulikka muhabbat tuyg'usi ufurib turadi. «Men she'rlarimning bir mavzu atrofida cheklanib qolishini istamayman», degandi Zulfiya. Uning lirikasi chindan ham ko'p ovozli. Bu ohanglarning eng muhimi va jarangdorini baxtiyorlik va hijron, g'am-fojeiylilik tashkil etadi: Ma'yusi ham, yorqini ham bor Tuproq, hayot, yurak bu axir—deydi u. Ijodida mana shunday fig'onli, jo'shqin va qalbni jumbushga keltiradigan go'zal satrlar ifoda etilgan.

References:

1. Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985.
2. Naim Karimov. m. G. Gulyama, 1983
3. X.Sulaymonova "Zulfiya hayoti va ijodi" "O'qituvchi"-Toshkent-1980 17-bet
4. Qayumov L. Shoiri Zulfiya. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.
5. Zulfita Isroilova asarlari, kitoblari- Kitobxon.com 3-b.
6. <http://arboblar.uz>



INNOVATIVE
ACADEMY